

JINOYAT PROTSESIDA DALILLARNI TO'PLASH**Normamat Ramazonovich Mallayev**

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

O'g'lonova Shaxnoza Baxodir qizi

Termiz davlat universiteti Advokatlik faoliyati mutaxassisligi 1-kurs tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17308474>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, jinoyat protsesida dalillarni to'plash haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Dalillarni to'plash jinoyat protsessining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki jinoyat ishining samarali tergovi, ayblov asosining qonuniyligi va sud jarayonida adolat bo'lishi buning samarali tashkil etilishiga bog'liq. O'zbekistonda jinoyat-protsessual kodeks, boshqa tegishli qonun hujjatlari, shuningdek xalqaro standartlar va amaliyot jinoyat dalillarini yig'ish, saqlash va sudda tan olinishi sohasida kechayotgan o'zgarishlar va muammolar orqali rivojlanib bormoqda.

Kalit so'zlar: jinoyat protsesi, dalillar, tergov jarayoni, ekspert xulosalari, jinoyat kodeksi, sud ishi, davo va shikoyatlar.

COLLECTION OF EVIDENCE IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Annotation. This article discusses the collection of evidence in criminal proceedings. Collection of evidence is one of the most important stages of criminal proceedings, since the effective investigation of a criminal case, the legality of the basis for the accusation, and the fairness of the trial depend on its effective organization. The Criminal Procedure Code of Uzbekistan, other relevant legislative acts, as well as international standards and practice are developing in the light of changes and problems in the field of collection, storage, and recognition of criminal evidence in court.

Keywords: criminal proceedings, evidence, investigative process, expert opinions, criminal code, court case, lawsuits and complaints.

СБОР ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается сбор доказательств в уголовном процессе. Сбор доказательств является одним из важнейших этапов уголовного судопроизводства, поскольку от его эффективной организации зависят эффективное расследование уголовного дела, законность обоснования обвинения и справедливость судебного разбирательства. Уголовно-процессуальный кодекс Узбекистана, другие соответствующие законодательные акты, а также международные стандарты и практика развиваются с учетом изменений и проблем в сфере сбора, хранения и признания доказательств по уголовным делам в суде.

Ключевые слова: уголовный процесс, доказательства, следственный процесс, заключения экспертов, уголовный кодекс, судебное дело, иски и жалобы.

Kirish. Dalillar sifatida guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining ko'rsatmalari, ekspert xulosalari, ashyoviy dalillar, audio va video yozuvlar, fotosuratlar, hujjatlar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqalar qabul qilinadi.

Surishtiruv va dastlabki tergov paytida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi huquqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bosqichda huquq egalari vakolatli advokat bilan maslahatlashish, tergov harakatlarida ishtirok etishni, so'roqda huquqlarini bilishini ta'minlash huquqi bor. So'nggi yillarda bu jihatlarida qonuniy kafolatlar kuchaytirildi¹.

Gumon qiluvchini so'roq qilish, ashyoviy dalillarni olib qo'yish, tintuv, ekspertiza tayinlash, hodisa joyida ko'rinish tekshiruvi kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Dalillar to'plash paytida protsessual talablarga rioya qilinishi zarur. Ish sudga taqdim etilishidan avval tergov hujjatlari to'liqligi tekshirilishi zarur. Sud tergov (ya'ni sudda ish holatini mustaqil tarzda, har taraflama va shu jumladan taraflarning dalillarini, huquq va manfaatlarini inobatga olgan holda tekshirish) tartibi qonunda belgilangan².

Sud tergov bosqichida protsess ishtirokchilarining sud majlislarida shaxsan yoki vakili orqali ishtirok etishi, o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, hujjatlarga e'tibori qaratilishi lozim.

Qonunchilikda va amaliyotda protsessual qonunchilikni buzgan holda yoki shafqsiz, qiynoqqa solish, psixologik yoki jismoniy bosim kabi nojo'ya uslublar bilan olingan ma'lumotlar, jabrlanuvchi, gumon qiluvchi, ayblanuvchining ko'rsatmalari, ekspert xulosasi, ashyoviy va boshqa materiallar dalil sifatida e'tiborga olinmasligi qat'iy belgilangan.

Uslublar orasida qiynoqqa solishga qarshi huquqiy kafolatlar mustahkamlanmoqda.

Ushlangan shaxslarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish, jarohatlar aniqlansa prokurorga xabar berish kabi chora-tadbirlar qonun loyihalarida nazarda tutilmoqda. Prokurorlar tomonidan tergov jarayoniga, jinoyat ishlarini qo'zg'atishda va tergov harakatlarini tasdiqlashda nazorat mexanizmlari kuchaytirildi. Shu jumladan, ayrim tergov harakatlarini amalga oshirish uchun prokuror yoki sud ruxsati kerakligi hollari mavjudligi.

Tergov organlari tomonidan dastlabki tergov paytida qonuniy tartibga rioya qilmaslik holatlari (so'roq paytida advokat ishtirokisiz, qo'llanilmagan ma'lumotlar, majburlash, bosim) uchrab turadi. Bu dalillar keyinchalik sudda e'tiborsiz qoldiriladi, lekin da'vo va shikoyatlar bo'yicha amaliyot murakkablashadi. Ashyoviy dalillarni to'g'ri belgilash, zanjir-nazorat, saqlash sharoitlari, hujjatlarning original nusxasining ishonchli bo'lishi, elektron dalillarning o'zlikdan saqlanganligi va qaytarilmasligi. Ekspertlarning mustaqilligi, malakasi va ekspertizaga topshirilgan materiallarning sifati ba'zan shubha ostiga olinmoqda. Rasman tayinlangan ekspertizalar ham xatolikka yo'l qo'yishi mumkin, ayniqsa elektron (raqamli) dalillar, audio-video yozuvlar, mobil aloqa yo'llari orqali olingan ma'lumotlar tahlilida³.

Sud majlislarida dalillar ustida bahs yuritilganda, ularning ishonchiligi, manbasining qonuniyligi, asl nusxalar va nusxalar, tarjima va ekspert xulosalarining tushunarli tarzi muhokama qilinishi lozim, ammo amalda ba'zan bu jihatlardan yetarli darajada foydalanilmaydi.

Elektron dalillar (kompyuter tarmoqlaridan, mobil qurilmalardan, internet resurslaridan, video-va audioyozuvlar) bilan ishlash bo'yicha texnik va huquqiy me'yorlar hali to'liq shakllanmagan yoki sud-ekspertiza muammolari mavjud. Shuningdek, dalillarni berkitish, manipulyatsiya qilish, o'zgartirish ehtimoli mavjud. O'zbekistonda jinoyat protsessida dalillar yig'ish bo'yicha milliy normativlar va amaliyot ham xalqaro huquqiy standartlarga yaqinlashishga harakat qilmoqda.

Sudlarning mustaqilligi va tomonlar huquqlari kafolatlari gumon qiluvchilar, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilarning advokat bilan shug'ullanish huquqi, tergov harakatlarida

¹ Jinoyat protsessida protsesual muddatlar va chiqimlar. Tulaganova G.Z. O'quv qo'llanma. 2024 80-b.

² Jinoyat protsesida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha klinik seminarlar. Rajaboy B., Mamataliyeva Sh. Toshkent – o'quv qo'llanma. 2022. 281 b.

³ Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). 2025. 480 b.

vakillar ishtiroki kabi prinsiplar xalqaro standartlarga muvofiqdir. Sudya nazorati va protsessual tartib qoidalari - tergov harakatlari va boshqa dalillarni to'plash bosqichlarida protsessual qonunchilikka rioya qilinishi lozimligi, sud nazorati va huquqiy shikoyat qilish mexanizmlari joriy etilishi xalqaro tajribaga mos keladi⁴.

Sud tergov jarayonida sudlarning faol ishtiroki, tergov harakatlari ustidan nazorat, tergov huquqlarining bajarilishi, tergov hujjatlarining to'liqligi va taraflar huquqlari himoyasining ta'minlanishi. Gumon qilinuvchi - ayblanuvchi huquqi bo'yicha advokat ishtiroki surishtiruv bosqichidan boshlanishi zarur, advokatlar huquqiy imkoniyatlarga ega bo'lishi va bu xizmatlar davlat tomonidan yoki boshqa vositalar bilan kafolatlanishi kerak.

Xulosa. O'zbekistonda jinoyat protsessida dalillarni to'plash qonunchilik va sud amaliyotida sezilarli darajada takomillashmoqda. Noqonuniy yo'llar bilan olingan ma'lumotlardan foydalanmaslik, qiynoqqa solishga qarshi choralar, prokuror va sud nazoratining kuchayishi, elektron dalillar tushunchasining joriy etilishi kabi yangilanishlar bu jarayonni adolatliroq va huquqiy jihatdan mustahkamroq qilishga yo'naltirilgan. Biroq, amaliyotda sud dalillarning identifikatsiyasi, saqlanishi, ekspertizalar sifati, huquqiy madaniyat kabi sohalar muammolar saqlanib qolmoqda. Kelajakda dalillarni yig'ish jarayonini yanada takomillashtirish, taraflarning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos huquqiy meyorlarni ishlab chiqish O'zbekiston jinoyat protsessual huquqining barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jinoyat protsessida protsesual muddatlar va chiqimlar. Tulaganova G.Z. O'quv qo'llanma. 2024 80-b.
2. Jinoyat protsesida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha klinik seminarlar. Rajaboy B., Mamataliyeva Sh. Toshkent – o'quv qo'llanma. 2022. 281 b.
3. Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). 2025. 480 b.
4. Jinoyat protsesida dalillar va isbotlash. Kadirova M. o'quv qo'llanma. 2024. 148 b.

⁴ Jinoyat protsesida dalillar va isbotlash. Kadirova M. o'quv qo'llanma. 2024. 148 b